

**ALIXONTO'RA SOG'UNIYNING HAYOTI VA TURKISTON TARIXIDA
TUTGAN O'RNI**

Abdullayev Temur

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Baxrom Sobirjonov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari

va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Maqolada XIX asr oxiri XX asr o'rtalariga qadar dastlab Chor Rossiyasiga keyinchalik esa Sovet hokimyatiga qarshi faol qarshilik olib boragan Alixonto'ra Sog'uniyning siyosiy, ilmiy faoliyati bilan bir qatorda diniy sahaga qo'shga hissasi o'ragniladi.

Kalit so'zlar: Sharqiy turkiston, marshl, "Temur tuzuklari" Jumhuriyat, Mir Arab, Madina

Yildan yilga jamiyatda yurt tarixni, ajdodalari hayoti va ilmiy faoliyatini o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Vatani tarixini bilgan va uni anglay olgan insongina bugungi kunda erishilgan yutuqlar qadrini biladi, asrab avaylaydi.

Alixonto'ra Shokirxonto'ra o'g'li So'g'uniy Turkistonning atoqli olimi va adibi, davlat arbobi Sharqiy Turkiston islom Jumhuriyatining birinchi prezidenti. Alixonto'ra Sog'uniy 1885-yilda soniq Turkiston viloyatining To'qmoq shaxrida(hozirgi Qirg'ziston) ziyoli o'zbek oilasida tavallud topgan. Sog'uniy taxallusining kelib chiqishi To'qmoq shaxrining qadimiy nomi Qoraxoniylar davlati poytaxti Bolasog'un bilan bog'liq. Otasi asli andijonlik din olimi Shokirxonto'ra. Shokirxonto'raning uch o'g'li bo'lib Alixonto'ra o'ratncha farzandi bo'lgan. Alixonto'ra Sog'uniy dastlabki ta'limni bobosidan oladi, keyinchali Buxorodagi Mir Arab madrasasida va Madinada madrasada ta'lim oladi. U yerda qiroat, tafsir, nahv, balog'at, fiqh, tibbiyot, mantiq ilmlarini chuqur o'rganadi. 1915-1923- yillar oralig'ida Buxora madrasalarida mudarislik ham

qiladi. Alixonto'ra hayotining katta qismini G'arbiy va Sharqiy Turkiston xalqlari ozodligiga bag'ishladi. 1914-yilda chor siyosatiga qarshi chiqqanligi sababli podshoh hukumati maxfiy politsiyasi nazoratiga olinadi. Keyinchaki 1916-yil qo'zg'olonlari shavqatsizlarcha bostirilishi natijasida siyosiy qochqin sifatda Qashg'arga ketishga majbur bo'ladi. Keyinchali Sharqiy Turkistonning boshqa bir shahri G'uljaga boradi. U yerda Qur'on tavsiri va tabibli bilan shug'illanadi. Bundan tashqari dastlab G'uljadagi kichik bir masjidda, so'ngra Sharqiy Turkistonning eng yirik masjidi "Beytulla" imomlik qiladi. 1937-yilda Xitoy ma'murlari tomonida hibsga olinadi, buning sababi Sharqiy Turkiston xalqlari orasida ozodlik g'oyalarini faola targ'ib qilgani edi. Keyinchali mahalliy boylar, din arboblarning aralashuvi bilan 1941- yilda adliyaviy taftish natijasida ozod qilinadi. 1943-yili Xitoy hukumatiga qarshi "Sharqiy Turkiston Ozodligi Tashkiloti"ni tuzdi. 1944-yili 10-noyabrda ozodli uchun kurashlar boshlanadi 12-noyabrda esa Sharqiy Turkiston Islom Jumhuriyat mustaqilligi e'lon qilinadi va Alixonto'ra Sog'unij Muvaqqat inqilobij qo'mita raisi etib saylanadi. Millij armijani tuzish, uni qurollantirish tashabbuskorigi sifatida qo'shin qo'mondoni etib tayinlanadi va "marshl" olij unvoni bilan taqdirlanadi. 1946-yil ijun oyida sovet hukumati josuslari tomonida G'uljadan Toshkentga o'g'irlab kelinadi. Alixonto'ra Sog'unij hayotining ko'p qismini surgunda, qamoqda va turli xil bosimlar ostida o'tkazadi. Sovet hukumati tomonidan taklif etilgan "hadyalar"ni xususan katta xovli, bir umirlik nafaqa va Fanlar akademijyasiga a'zolik takliflarini rad etib kelgan. Alixonto'ra xalq orasida katta obro'ga ega ekanligi sababli umrining oxiriga qadar sovet maxfiy xizmatlari ro'yhatida turadi. 1979-yili 28- fevralda 91 yoshida vafot etadi. Toshkentdagi Shayx Zayniddin ota qabristoniga dafn etiladi.

Mustaqillikdan keyin Alixonto'ra Sog'unij hotirasini abadiylashtirish maqasadida Toshkent shaxri Shayxontoxur tumanidagi ko'chaga, Yakkasaroy tumanidagi maktabga va Chilonzor tumanidagi mahallaga nomi berildi.

Mustaqilik sharofati bilan Alixonto'ra Sog'unij kitoblari keng jamoatchilik hukmiga ahavola etildi. Alixonto'ra hayoti davomida yozgan asrlarni quyidagilar: "Tarixi Muhammadij"(1954-1961-yillarda yozilgan), "Turkiston qayg'usi"(1966-

1973-yillarda yozilgan),“Devoni Sog’uniy”(she’riy to’plami),“Shifo uilal”(Kasalliklar davosi) kabi asrlarni yozgan.

Bundan tashqari tarjimonlik faoliyati bilan ham shug’illanib quyidagilarni o’zbek tiliga tarjima qiladi: Ahmad Donish. “Navodirul-voqea”(forschadan tarjima),Darvesh Aliy Changiniy. “Musiqqa risolasi”,Amir Temur. “Temur tuzuklari”(forschadan tarjima), Herman Vanberiy. “Movaraunnahr yoki Buxoro tarixi”

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki jadidlar, “bosmachilar” va shu kabi yurt ozodligi, xalq ma’rifati uchun kurashgan qatorida Alixonto’ra Sog’uniy alohida o’rin egallaydi. Uning bu yo’ldagi qilgan ishlari bebahodir. Alixonto’ra Sog’uniy va yuzlab marifatparvarlar qatil qilingan, quvg’inga uchragan, surgun qilingan bo’lsada, ularning qoldirgan izlari xalqning uyg’onishi, ilmsizlik botg’og’idan ma’rifat tomon yurishiga turtki bo’ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1.Alixonto’ra Sog’uniy “Tarixi Muhammadiy”2020-yilgi nashr

2.<https://doi.org/10.59653/jmisc.v2i02.540>

3.Qutlug’xon Shokirov «Sharq yulduzi» jurnali, 1992-yil, 7-son [Alixonto’ra Sog’uniy](#)